

IJTIMOYIY MAQOM, IJTIMOYIY ROL, LISONIY ISHTIMOYILASHUV

Iskandarova Aybibi Raximbayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti

“Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik” kafedrasida dotsenti.

E-mail: oybibiskandarova26@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tahlili jarayonida sotsiolingvistik atamalar: ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, tilning ijtimoiylashuv hodisalariga diqqat qaratildi. Ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, lisoniy ishtimoiylashuv tushunchalari hikoyadagi Saodat aya, o‘gli Bo‘rixon, Anvar obrazlarining nutqi, xatti-harakatlari bilan bog‘liq tarzda nazariy jihatdan yoritildi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ vaziyat, nutqiy akt, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, lisoniy ijtimoiylashuv.

Аннотация: В данной статье в ходе анализа рассказа Саида Ахмада «Черноглазый Меджнун» были рассмотрены социолингвистические термины: социальный статус, социальная роль, социализация языка. Понятия социальный статус, социальная роль, языковая социализация были теоретически освещены во взаимосвязи с речью и поведением персонажей рассказа Саодат - ая, Борихан и Анвар.

Ключевые слова: коммуникативная ситуация, речевой акт, социальный статус, социальная роль, языковая социализация.

Abstract: This article's examination of Said Ahmed's narrative "Karakoz Majnun" concentrated on sociolinguistic words such as social position, social role, and language socialization processes. The words and actions of the story's characters Saodat, son Borikhan, and Anvar were examined in relation to theoretical explanations of social position, social role, and linguistic communication.

Keywords: communicative situation, speech act, social status, social role, linguistic socialization.

Shaxsning ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, tilning ijtimoiylashuvi bir biri bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, u diaxron sotsiolingvistikada o‘rganiladi. Talabalarni nazariy ma‘lumotlar bilan tanishtirganda, Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tahlilidan foydalanish yaxshi samara beradi. Tahlil jarayonida kommunikativ vaziyat, nutqiy akt, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, tilning ishtimoiylashuvi atamalarining mohiyati ravshanlashadi, mavzu talabalarning xotirasida oson o‘rnashadi, mustahkamlanadi.

“Jamiyatda yashaydigan va turli guruhlariga mansub bo‘lgan har bir individ jamiyatda bir qancha ijtimoiy o‘ringa ega bo‘ladi... Mazkur o‘rinlarning har biri muayyan qoidalar va vazifalar bilan bog‘liq bo‘lib, u ijtimoiy maqom deb nomlanadi. Ijtimoiy maqomlarning aksariyatiga insonning o‘zi erishadi.”[Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. 2014:33]

Haqiqatan ham, ijtimoiy maqom shaxsning ma‘lum jamiyatda yashab, shu jamiyatning biror bir guruhiga mansub bo‘lishi, egallagan lavozimi, kasbi, shu lavozim, kasbiga doir huquq,

burch, majburiyatlari bilan bog'liq. Shaxsning shu lavozim va majburiyatdan kelib chiqib bajaradigan vazifalari uning ijtimoiy rollaridir.

“Qorako‘z Majnun” hikoyasi xabar mazmunli matn bilan boshlanadi: “Saodat aya bomdod namozini o‘qib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan 3 yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur‘on tilovat qildi. O‘ris shaharlarda daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga Xudodan insof tiladi.” [Said Ahmad. 2013: 90]

Bahodir Karim “Ruhiyat alifbosi” asarida sotsiologik metod haqida fikr bildirib: “Sotsiologik metod asosiga e‘tibor qaratgan I. Ten san‘at predmeti jamiyat hayotida mavjud insonlarning xarakteridir, deb ta‘kidlaydi. U ilmiy-nazariy tamoyillarni “ irq, muhit va vaqt” tushunchalari vositasida izohlaydi. San‘at asarini qaysidir irq-xalq-millatga mansubligini, ma‘lum bir muhit va muayyan zamonda yaratilishiga alohida urg‘u beradi.” [Bahodir Karim. 2018:157]

Haqiqatan ham, inson qaysi muhitda yashasa, uning nutqida o‘sha muhit so‘zlashuv tili aks etadi, Insonning nutqi u bajaradigan ijtimoiy maqom va ijtimoiy rollari bilan bog‘liq. “Ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri lisoniy ijtimoiylashuv bo‘lib, u muayyan jamiyatda qo‘llaniladigan tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish qoidalarini u yoki bu ijtimoiy rolni ijrosiga muvofiq ishlatishini ifodalaydi” [Sh.Usmanova, N.Bekmuxeamedova, G.Iskandarova. 2014:34]

Hikoyada bu holat “Я здоров”, “Ну зачем, зачем плачеш, мама, вот и приехал, хватит, хватит”, “Салям”, “Ведь барана жалко, все равно я столько мясо не ем! У нас баранина не едят” kabi personaj nutqida ishlatilgan sintaktik qurilmalar orqali berilgan. “O‘g‘li Bo‘rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan, Harbiy xizmati tugadi hamki, uyga qaytmadi. O‘sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lib, qolib ketdi. Ba‘zi-ba‘zida undan “Яздоров” degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o‘n besh yildirki, adresni unutib qo‘yganmi, ishqilib, shu o‘rischagina xat ham kelmay qo‘ygan.”

“Personajlar nutqini individuallashtirish zarurati badiiy asar tilidagi differentsatsiyalanganlikni yanada orttiradi. Chunki asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga, dunyoqarashi, muhiti, ma‘naviy qiyofasi, madaniy-ma‘rifiy darajasi kabi jihatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Sababki, epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi. Zero, asardagi har bir personaj o‘zining yoshi, jinsi, ijtimoiy qatlamga mansubligi, fe‘l-sajiyasi, madaniy-ma‘rifiy saviyasi kabilarga muvofiq gapiradi, demak, nutqi bilan o‘zini tavsiflaydi.” [D. H.Quronov. 2020:164]

“Qorako‘z Majnun” tragik mazmunga ega hikoyadir. Bo‘rixondagi millatsizlik, tilsizlik, Vatansizlik - bu fojaviy holatlardir: “Bo‘rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? O‘ylab-o‘ylab, “Салям!” dedi. Jigarlari kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi”...

“Tug‘ilgan yurtiga muhabbat tuyg‘usi uni tark qilganiga ko‘p yillar bo‘lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi,”- deyiladi hikoyada.

“Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”da ijtimoiy maqom va ijtimoiy rol, ijtimoiylashuv atamaları quyidagicha izohlangan:

Ijtimoiy maqom – shaxsning yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoliga ko‘ra jamiyatda tutgan o‘rni.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, me’yorlar va qadriyatlar tizimining o’zlashtirilish jarayoni. [“Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug’ati: 2020: 95]

Rol – kimsaning ta’sir ko’lami, biror narsada ishtirok darajasi, tutgan o’rni, mavqei. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати.2007: 391]

Hikoyada Anvarning “tog’am o’zbekchani esidan chiqarib yuboribdi”. “Men bilan o’rischa gaplashdi”. “Bitta sog’in echkisi, to’rtta qanor qopdek cho’chqasi, o’ntacha cho’chqachalari bor,” “Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan”. “Bo’chka-bo’chka samogon aroq yasab, qishi bilan ichisharkan” kabi tavsiflari Bo’rixonning xristian oilasidagi otalik maqomi, shu maqomga mos rollarini ko’rsatmoqda.

“Har qanday maqom huquq, majburiyat va unga mos me’yoriy muomaladan iborat bo’ladi. ... Bir maqomga bir necha rollar mos kelishi mumkin.” ...Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni – yashashi va harakat qilishi kutilayotgan jamiyatga kirishidir. Ijtimoiylashuv individning asta-sekin o’zi uchun yangi bo’lgan guruhlariga kirishi va yangi rollarni o’zlashtirish jarayonidir.”[Sh.Usmanova, N. Bekmuxamedova, G.Iskandarova. 2014:34]

Hikoyada shaxsning ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, shu maqom va roli bilan bog’liq tarzda namoyon bo’lgan nutqiy akti quyidagi jummalarda ifodalangan: Bo’rixon “o’rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo’ng’iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo’lib qoldi”. “Qallig’ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi”. “Qiz Bo’rixonni xristian diniga kirishga undadi”. “Ishq-muhabbatdan ko’zini parda bosgan Bo’rixon hech ikkilanmay rozi bo’ldi”. “Uni cherkovda cho’qintirishdi”. “Keyin cherkov oqsoqoli kelin va kuyovga toj kiydirib, nikoh o’qidi”.

“Bo’rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho’qinadigan bo’ldi.” “Qaynotasi o’lgandan so’ng uning o’rniga cherkov qo’ng’iroqchisi qilib qo’yishdi”

“Nimaiki ish bo’lsa, barini u bajaradigan bo’ldi”. “Piligi so’xta bo’lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo’lganlarini almashtiradi”.

Hikoyadagi bu tavsilotlar Bo’rixonning cherkov qo’ng’iroqchisi jtimoiy maqomi va shu maqomga mos harakatlari - ijtimoiy rolini ko’rsatmoqda. Shaxsning jamiyat ichida bir nechta maqomlari bor. Shu maqomlar bilan bog’liq rollari – harakatlari bor. Demak Bo’rixonning ijtimoiy maqomi - uning kasbi, kasbi bilan bog’liq xatti-harakatlari esa – uning rollaridir. Bu ijtimoiy maqomning bir ko’rinishi. Oilada ota, er, cherkov qo’ng’iroqchisining kuyovi ekanligiham Bo’rixonning maqomlaridir.

Said Ahmad Saodat ayaning ruhiy holatini vaziyatga mos tarzda tasvirlagan: “Birovga so’zini bermaydigan errayim kampirning shohi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o’tirib qoldi”. Bo’rixonning bo’ynidagi yaltillagan butni ko’rgandan keyin kampirning “badanidan chayon o’rmalagandek seskandi”. “Bir dam uni shuur tark etdi”.

Bu o’zbekning oilasi uchun obro’ talashadigan, pokiza, xokisor, bolafidoyi onasi - Saodat ayaning onalik maqomi va rollaridir. Hikoyada Saodat ayaning rollari quyidagicha tasvirlanadi:

“Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi.” “Uch yoshga kirguncha shu supada bag’rida olib yotgan edi”. “Uni yomon ko’zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko’zmunchoqlar taqib qo’yardi”. “Sultonimga atab unga kokil qo’ygandi”. “Olti yoshga to’lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo’y so’yib xudoyi qilishgan edi.”

Xulosa qilib aytganda, inson qaysi muhitda, jamiyatda yashasa, kasbi, lavozimi bilan jamiyat hayotida ishtirok etsa, uning nutqiy muomalasi, harakatlari ham shu jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu shaxsning ijtimoiy maqomi, roli, tilining ijtimoiylashivi hodisasidir.

Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi insonning o‘zligi haqidagi hikoya. O‘zlik – tug‘ilgan ona tuprog‘imiz, ichgan suvimiz , yegan nonimiz bilan bog‘liq. Shu tuproq, non va suvga qarzdorlik haqidagi tushuncha.

“Qorako‘z Majnun” hikoyasiXX asr jahon adabiyoti namunalari bilan bimalol bellasha oladigan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Usmanova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandartova Sotsiolingvistika. T.2014.- B.84
2. Said Ahmad. Qorako‘z Majnun. T.2013. -B232.
3. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. Т.2018. –В.364
4. D.H. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.2020. – B.308
5. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. T. 2020. – B.308
6. Ўзбектилинингизоҳдилуғати.Т. 2007. 3-жилд. – В.688.